LEKSIK-SEMANTIK SATHDA KO‘CHIMLARNING SHAKLLANISHI VA TURLARI

Shomurodova Sh.J.
(SamDChTI)
shomurodova.sh@samdchti.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksik-semantik sathda ko‘chimlarning shakllanishi, ularning til tizimidagi o‘rni va asosiy turlari tahlil qilinadi. Unda so‘zning asl va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi munosabat, ko‘chimlarning matn mazmunini boyitishdagi vazifasi hamda lingvomadaniy va stilistik tadqiqotlardagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, kinoya, giperbola, litota va evfemizm kabi ko‘chim turlari nazariy manbalar asosida izohlanadi. Maqolada ko‘chimlarni tasniflashga oid turli ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning semantik-struktural xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ko‘chimlar tilning obrazlilik, ekspressivlik va ma’no kengaytirish imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: leksik-semantik sath, ko‘chim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, kinoya, giperbola, litota, evfemizm, lingvomadaniyat, stilistika.

Til millat ko‘zgusi sifatida jamiyat taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ma’lum bir tilning rivojlanishi u amal qilayotgan jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq. Har qanday til leksik birliklardan tashkil topgan tizim sifatida bir butunlikni kasb etadi. Matn interpretatsiyasining asosida bir qator, jumladan dunyoning lisoniy manzarasini tashkil etuvchi lingvomadaniy kontseptlar yotibdi va mazkur kontseptlar lingvomadaniyat dunyosi bilan chambarchas bog‘liq sanaladi. Bu masalada Yevropa, ayniqsa Amerika olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsada, dunyodagi tillar rang barangligi madaniyatlar rang barangligini vujudga keltirishini tan olmasdan ilojimiz yo‘q. Shu nuqtai nazardan, alohida tillar kesimida lingvomadaniy hamda stilistik tadqiqotlar o‘tkazish bugungi kunda tilshunoslar oldida o‘z yechimini kutayotgan masalalardan sanaladi.

Taniqli rus tilshunosi A.Reformatskiy ta’kidlaganidek, “So‘z eng aniq til birligi sanaladi” [4;59]. Binobarin til aloqa vositasi sifatida avvalambor, so‘zlardan tashkil topadi. Ammo so‘zlarning leksik, grammatik, kontseptual, fonetik va boshqa xususiyatlarini inobatga olinadigan bo‘lsa, unga nisbatan bir qolipga solingan tizimli ta’rifni qo‘llash mumkin bo‘lmay qoladi. Ushbu xususiyatga tayangan holda F.de Sossyur “So‘z tushunchasini tilning ma’lum bir birligi haqidagi fikr qarashlarimizga mos kelmaydi” degan fikrlari bilan tilning mohiyatan aniq birligini so‘z misolida talqin etish xato ekanligini XX asr boshlarida ta’kidlab o‘tgan [6;107]. Sh.Balli fikriga ko‘ra, “So‘z tushunchasi aniq hisoblanadi, ammo aslida bu tilshunoslikdagi eng noaniq tushunchalardan biri hisoblanadi” [2;315].

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, so‘z tushunchasini turli nuqtai nazarlardan talqin etilsa, unga nisbatan aniq bir ta’rifni berish mumkin bo‘lmaydi. So‘zga ta’rif berishda murakkab tizimni yuzaga keltiruvchi eng asosiy omillardan biri bu so‘zning asl ma’nosi va ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi nomuvofiqliklar sanaladi. So‘zning ushbu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘p lug‘atlarda uning ko‘chma ma’nosi yoki ma’nolari aks ettirilsada, ko‘chimlar alohida qayd etilmaydi.

Ko‘chimlarni izchil tahlil etish bilan bog‘liq qarashlar zamonaviy tilshunoslikning turli jabhalari bilan uzviy bog‘liq tarzda kechadi. Agar pragmatika uchun insonlarning ijtimoiy

muhitdagi faoliyati printsiplarini fakt, maqsad sifatida o‘rganish lozim bo‘lsa, kognitiv lingvistika uchun esa – freym (M.Minskiy), kognitiv model (Dj.Lakoff), mental borliq (J.Fokone) va hokazolarni tadqiq etish va tushunish muhim hisoblanadi [10].

Bugungi kunda tilshunoslar orasida ko‘chim va ko‘chim turlari xususidagi fikrlarda yakdillik kuzatilmaydi. Rus tadqiqotchilarining ba’zilari hosila ma’noning yuzaga kelishiga ko‘ra ko‘chim turlarini uchga ya’ni metafora, metonimya va vazifadoshlikka asoslangan ko‘chim turlariga ajratishgan (N.Shanskiy, D.Shmelyov). Ba’zi tadqiqotchilar ko‘chimlarni klassifikatsiya qilishning umuman murakkab tizimini ishlab chiqishgan. Ularga ko‘ra, ko‘chimlar ikki guruhga bo‘linadi:

1.So‘zlarga asoslangan ko‘chimlar;

2. Gap ko‘chimlari.

So‘zlarga asoslangan ko‘chimlarga metafora, metonimiya, antonomaziya, onomatopiya (tovushga taqlid so‘zlar), sinekdoxa, kataxreza va metalepsislarni kiritishgan. Olimlarning fikriga ko‘ra, so‘zlarga asoslangan ko‘chimlar matn tarkibida ma’no-mazmun ifodasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Gap ko‘chimlari guruhiga epitet, kinoya, allegoriya, emfaza, perifraza, giperbola, litota, evfemizmlar kiritilgan hamda ular gap mazmunini boyitishga xizmat qiladi degan fikrlar ilgari surilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ko‘chimlar va ko‘chimlar turlarni o‘rganish bo‘yicha nazariyalar tarixi Sitseron, Aristotel, Demetriy, Kvintilian davrlariga borib taqalsada, ularni keng miqyosda tadqiq etish nisbatan yaqinda ya’ni XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. R.Yakobsonning metafora va metonimiyani qiyoslagan holda o‘tkazgan tadqiqoti natijasi o‘laroq ko‘chimlarni semantik-struktural o‘rganishga bo‘lgan yangicha yondoshuvlar yuzaga keldi. Mazkur yondoshuvlar asosida Yevropa olimlarining neoritorika xususidagi ishlari turadi.

Neoritiorikaga bag‘ishlangan mazkur tadqiqotlar ko‘chimlar strukturasiga va kelib chiqishiga umuman o‘zgacha yondoshuvni keltirib chiqardi. Binobarin, ular tomonidan ko‘chimlarni faqat uch turga bo‘lgan holda o‘rganish (metafora, metonimiya, sinekdoxa) taklif etildi. Masalan, Sv.Todorov asosiy ko‘chim sifatida sinekdoxani ko‘rsatdi va uning mazmunan ikkiga bo‘linishi metaforani keltirib chiqaradi degan g‘oyani ilgari surdi. J.Dyubua ham sinekdoxani asos ko‘chim sifatida ko‘rsatib, undan metafora va metonimiya shakllanadi degan taklifni ilgari surdi. Italiyalik tadqiqotchi U.Eko asosiy ko‘chim sifatida metonimiyani tan oldi. (Shu kabi izlanishlarga qaramasdan, zamonaviy rus tili semasiologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ko‘chimlar turlicha guruhlarga bo‘linishgan [11;67]: Zamonaviy ingliz tilida ko‘chimlar turlari quyidagicha aks etgan:

№	Basis	Tropes	Definition	Examples
1	**Inversion**	Irony	This occurs when words or events convey something different—often the opposite—of their actual meaning.	
		Oxymoron	This figure of speech uses contradictory words as a paired unit.	falsely true
2	**Overstatement/Understatement**	Hyperbole	• This is an extreme exaggeration for dramatic or comedic effect	• I was waiting in line forever”; “I’m so hungry I

				could eat a horse.
		Litotes	This figure of speech affirms an idea by contradicting its opposite.	
3	**Reference** •	Metaphor	This figure of speech is an implicit comparison between two different things, used for poetic or dramatic effect.	
		Personification	Writers employ personification when they give qualities of greater animation to less animate concepts, objects, or animals.	The wind is laughing.
		Simile	Similar to metaphor, it is an explicit comparison between two things using	My heart cold like assassins, America is a melting pot
4	**Substitutions** •	Euphemisms	When people replace a harsh, taboo, or unpleasant term with more delicate phrasing, that is a euphemism.	• a bun in the oven" - pregnant.
		Metonymy	This is when a word or term is replaced by something associated with it.	The pen is mightier than the sword
		Synecdoche	When you refer to a whole by its part(s) or a part by the whole, that is synecdoche.	Wheels-car

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аристотель. Поэтика / пер. Н.М.Позднева-СПб.:Амфора, 2008.-320с.
2. Балли Ш. Общая лингвистика М.1955,с.315
3. Реформатский А.А. Введение в языковедение. Аспент пресс.М.1996.С.59.
4. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики, 1933, с.107.
5. Backman G. Meaning by Metaphor: An Exploration of Metaphor with a Metaphoric Reading of Two Short Stories by Steven Crane. – Uppsals: (Acta Universitatis Upsaliensis. Studia Anglistica Upsaliensia: 75), 1991,-200 p.
6. Carbonel J. Metaphor. An Inescapable phenomenon in natural language comprehension // www.reserchgate.net.
7. Kovecses Z. Metaphor in culture. Universality and variation. Cambridge University Press.2005. -125p.
8. Lakoff J., Jonson M. Metaphors we live by. The University of Chicago Press. Chicago, 1980.253p.
9. Лузина Л.Г. Проблемы стилистики и лингвопрагматической интерпретации // Прагматика и семантика: Сб. науч.- аналит. обзоров.- М.: ИНИОН, 1991. – С. 67-81.